

E'zoza Karimova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Madaniyatshunoslik yo'nalishi magistranti
E-mail: karitmovaezoza46@gmail.com*

YOSHLAR MEDIA SAVODXONLIGINING JAMIYAT IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITI BARQARORLIGIGA TA'SIRI

***Annotatsiya.** Mazkur maqola bugungi globallashuv asrining asosini tashkil qilayotgan axborot va media masalalarini madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ochib berish hamda, yosh avlodning mediasavodxonligi jamiyat va davlat ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligining muhim omillaridan biri sifatida tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda jahon tajribasi, ilmiy-nazariy tahlillar va mavzu yuzasidan takliflar keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** mediasavodxonlik, mediata'lim, xorij tajribasi, ma'naviy muhit, davlat siyosati.*

THE IMPACT OF YOUTH MEDIA LITERACY ON THE STABILITY OF THE SOCIO-MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY

***Abstract.** This article aims to reveal the issues of information and media that form the basis of today's globalization age from the perspective of cultural studies, and to analyze the media literacy of the younger generation as one of the important factors in the stability of the socio-spiritual environment of society and the state. It presents world experience, scientific and theoretical analyses, and proposals on the topic.*

***Keywords:** media literacy, media education, foreign experience, spiritual environment, public policy.*

Bugungi globallashuv asrida kelajak egalari hisoblanmish yosh avlodga e'tibor har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 80-sessiyasida nutq so'zlar ekan, yoshlar masalasiga alohida to'xtaldilar: "Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o'sib kelayotgan yosh avlod qo'lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do'stlik, o'zaro ishonch va

hurmat kabi oliyjanob g'oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir" [1]. Bu borada "Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati" ni ta'sis etish va uning qarorgohini O'zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari surilishi ham masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Media olamning bugungi rango-rang qiyofasi esa aynan yosh avlodni birinchilardan bo'lib o'ziga jalb qilmoqda. Yoshlar mediasavodxonligi dunyo miqyosidagi keng muhokamalarga sabab bo'layotgan mavzu ekanligini hisobga olsak, uning jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligiga ta'siri yaxshigina ekanligini rad etib bo'lmaydi. Ushbu maqolaning maqsadi yoshlar mediasavodxonligining ahamiyatini yanada ochib berish va shu asnoda jamiyat, madaniyat va ma'naviyat masalasini mediatarmoqlardagi qiyofasi bilan solishtirgan holda madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilishdir. Uning vazifasi esa yoshlar mediasavodxonligini oshirish va shu orqali jamiyatda xavfsiz ma'naviy-ijtimoiy muhit barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shish hisoblanadi.

Mediasavodxonligi – bu turli shakllarda ommaviy axborot vositalariga kirish, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatini o'z ichiga olgan savodxonlikning kengaytirilgan tushunchasi. Shuningdek, u tanqidiy fikr yuritish va axloqiy harakat qilish qobiliyatini o'z ichiga olish, dunyo bilan aloqa qilish va ijobiy o'zgarishlarga hissa qo'shish uchun axborot va aloqa kuchidan foydalanish kabi xususiyatlarga ega. Mediasavodxonligi ommaviy axborot vositalarining turli turlariga taalluqlidir hamda ish, hayot va fuqarolik uchun muhim mahorat sifatida qaraladi [2].

Mediasavodxonlikni oshirish zaruriyati bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi axborot oqimini mislsiz darajada oshirib yubordi. Bu esa har bir insondan tanqidiy fikrlash, ishonchli manbalarni ajrata olish va media mahsulotlarni to'g'ri talqin qilish qobiliyatini talab qiladi. Mediasavodxonlikni oshirish zaruriyatining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

1. Yolg'on va manipulyator axborotlardan himoyalash. Soxta yangiliklar (fake news), propaganda va dezinformatsiyalar jamiyatga jiddiy ta'sir

ko'rsatmoqda. Mediasavodxon shaxs bunday axborotlarni tahlil qiladi, manbani tekshiradi va haqiqatni aniqlay oladi.

2. Ijtimoiy tarmoqlarda ongli ishtirok. Har kim bloger, muallif yoki “axborot tarqatuvchi”ga aylangan bir davrda, mas’uliyat bilan yozish va tarqatish muhim bo‘lib, mediasavodxonlik insonni ijtimoiy tarmoqlarda ehtiyotkor, axloqiy va qonuniy doirada harakat qilishga o‘rgatadi.

3. Demokratik jamiyatda faol ishtirok etish. Erkin axborot olish va uni tahlil qilish huquqi fuqarolik jamiyatining muhim qismi hisoblanib, mediasavodxon fuqaro siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarda ongli qarorlar qabul qila oladi.

4. Bolalar va yoshlar ongini himoya qilish. Yosh avlod internetda juda ko‘p axborotga duch keladi – bu doim ham foydali emasligini hisobga olib, otalar va pedagoglar uchun mediasavodxonlik bolalarni zararli kontentdan himoya qilish vositasidir.

5. Raqamli savodxonlikning tarkibiy qismi. Mediasavodxonlik zamonaviy raqamli savodxonlikning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanishni o‘rgatadi.

Mediasavodxonlik shunchaki axborotni o‘qish emas, axborotni tushunish, tahlil qilish, baholash va undan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasidir. Shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy va milliy darajada axborot madaniyatini shakllantirish uchun mediasavodxonlikni rivojlantirish zarur. “Ma’lumot savodxonligi bu bilimdon va faol fuqarolarni shakllantirishdir”, – deydi Irene Mwendva

[1]. Bugungi kunda turli mamlakatlarda o‘z aholisining, xususan, yoshlarining mediasavodxonligini rivojlantirish maqsadida dunyo bo‘ylab juda katta masshtabli ishlar amalga oshirilmoqda. Ularga hatto YUNESCO, BMT kabi yirik tashkilotlar ham homiylik qilmoqda. O‘tkazilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mediasavodxonlik, mediata’lim kabi sohalarida amaliy ishlar va ijobiy natijalar borasida bugungi kunda mediasavodxonlik borasida Finlandiya, Kanada kabi davlatlar ustuvorlik qiladi [3].

Kanada Shimoliy Amerikada maktab o'quv dasturida mediasavodxonligini talab qilgan birinchi davlat bo'ldi. Har bir viloyat o'z o'quv dasturida mediata'limni belgilab qo'ygan. Misol uchun, Kvebekning yangi o'quv dasturi 1-sinfdan o'rta maktabning oxirgi yiligacha media savodxonligini talab qiladi. Kanadada media-ta'limning boshlanishi turli sabablarga ko'ra yuzaga keldi. Buning sabablaridan biri Amerika ommabop madaniyatining keng tarqalganligi haqidagi tashvish hisoblanadi. Kanadalik aloqa olimi Marshall McLuhan

1950–1960-yillardayoq Shimoliy Amerikada mediasavodxonlik bo'yicha ta'lim harakatini boshlab yubordi. Mediasavodxonligi va mediata'lim sohasida Kanadaning ikki yetakchisi – Barri Dunkan va Jon Pungentlar hisoblanadi.

Yoshlar orasida mediasavodxonlikni oshirish uchun ta'lim tizimida maxsus fan, yoki modullar joriy etish, ijtimoiy kampaniyalar va treninglar o'tkazish, ota-onalar va pedagoglar uchun yo'l-yo'riq materiallar tayyorlash, raqamli platformalarda foydali va ishonchli kontentni targ'ib qilish muhim sanaladi. Mediasavodxonlik yoshlar uchun zamonaviy hayotda zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalardan biri bo'lib, ularning ongini, fikrlash tarzini va ijtimoiy faoliyatini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan, har bir ta'lim muassasasi, ota-ona va jamiyat a'zosi yoshlar orasida mediasavodxonlikni targ'ib qilishda faol bo'lishi zarur. Bu borada jahon tajribasida amalga oshirilayotgan ishlar talaygina. Jumladan, Global Media va Axborot Savodxonligi Haftaligi YUNESCO tomonidan har yili tashkil etiladigan tadbir bo'lib, Iordaniyaning Amman shahrida bo'lib o'tadi. 2011-yildan beri har yili nishonlanadigan Global Media va Sxborot Savodxonligi Haftaligi dunyo bo'ylab manfaatdor tomonlarni g'oyalar almashish hamda barcha uchun media va axborot savodxonligini targ'ib qilishning innovatsion usullarini o'rganish uchun birlashtiradi [4]. 2024-yilgi mavzu "Axborotning yangi raqamli chegaralari: jamoat manfaatlari bo'yicha ma'lumot uchun media va axborot savodxonligi" shiori bilan sun'iy intellekt va raqamli kontent yaratuvchilarining yangi avlodi kabi rivojlanayotgan texnologiyalarning jamoatchilik manfaatlariga mos keladigan ma'lumotlarni ishlab chiqarish va tarqatishga o'zgaruvchan ta'sirini ko'rib chiqadi, imkoniyatlar va

xatarlarni ta'kidlaydi. Shuningdek, Global Media va Axborot Savodxonligi Haftaligi doirasida tez rivojlanayotgan raqamli landshaftga mos kelish va foydalanuvchilarni onlayn ravishda jamoatchilik manfaatlariga oid ma'lumotlarni aniqlash, baholash va ular bilan shug'ullanish ko'nikmalariga ega bo'lish muhimligini ta'kidlanadi [5].

Bugungi kunda madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan mediasavodxonlikning jamiyatda ijtimoiy birlik va madaniy qadriyatlarni saqlashdagi rolga alohida to'xtalmasak bo'lmaydi. Binobarin, axborotdan oqilona foydalanish orqali ijtimoiy muammolarni kamaytirish va yoshlar orasida ma'naviy barqarorlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Ma'lumki, yoshlarning axborot maydonida tanqidiy fikrlash qobiliyati, media xabarlarini to'g'ri baholash ko'nikmalari jamiyat barqarorligi va madaniy merosni himoya qilishda muhim omil hisoblanadi. Yoshlarning axborot maydonida ongli va mas'uliyatli ishtiroki jamiyat barqarorligi va madaniy merosni himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun mediasavodxonlikni yoshlar orasida keng targ'ib qilish va rivojlantirish davlat siyosati va jamiyat e'tiborida bo'lishi lozim. Bu borada Finlandiya tajribasini misol qilib keltirish mumkin. Finlandiya maktablarida mediasavodxonligini o'rgatish uning chegarasida paydo bo'lgan dezinformatsiya bosqinini oldini olishning bir usuli sifatida baholanadi. News Media Finland loyiha menejeri Susanna Ahonen Finlandiyadagi davomli mediata'limni yoqlay turib, "Biz har bir avlodni qayta-qayta o'qitishimiz kerak. Garchi biz dunyodagi eng yaxshi bo'lsak ham, agar biz bu ustida doimiy ravishda ishlamasak, bu saqlanib qolmaydi. Bu abadiy loyiha", – deya ta'kidlaydi. Butun dunyo bo'ylab mutaxassislar soxta yangiliklar tarqalishiga qarshi turish uchun mediasavodxonligini oshirishga chaqirmoqda. Ammo bu borada turli mamlakatlarda kam ish qilingan bo'lsa-da, Finlandiya yetarli choralar ko'rdi: 2014-yildayoq mediasavodxonligi har qanday yoshdagi o'quvchilar uchun milliy o'quv dasturining bir qismiga aylandi. Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalar, hatto o'qish yoki yozishni ham bilmaydilar. Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish haqida qanday fikr yuritishlari mumkin degan savol tug'ilishi tabiiy. Dasturga

ko'ra yosh bolalar haqiqat va fantastikani ajratishni o'rganishlari mumkin. Masalan, ular sinfda ertaklarni o'qishlari va hikoyaning haqiqat bo'lishi mumkinligini muhokama qilishlari mumkin. Ba'zi ertaklarda ayyor odamlar, yoki hayvonlar boshqalarni aldashadi. Bu yana bir saboq beradi: Siz olgan ba'zi ma'lumotlar haqiqat bo'lmasligi mumkin, ammo ular sizga zarar yetkazish uchun ishlatilmoqda kabi va hokazo [6].

Qator loyihalar davomida amalga oshirilayotgan islohotlar ham asosan yosh avlod ta'limi uchun qaratilgan. Xususan, "Mediasavodxonlik ABC kitobi" deb nomlangan axborot kitobi – alifboning har bir harfini media savodxonlik ustunlari bilan bog'laydi.



"Media-savodxonlik ABC kitobi" muqovasidagi dizayn.

(News Media of Finlandiya)[7].

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bugungi yangi O'zbekistonni qurish yo'lida jahon tajribasidan foydalanish katta ahamiyatga egadir. O'zbekistonda yoshlar mediasavodxonligini rivojlantirish yo'llari, jumladan, ta'lim tizimidagi mediasavodxonlikni kuchaytirish, davlat siyosati va ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, OAV va internet platformalarining rolini tushunish kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar va amaliy ishlar olib borilishi juda katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston yoshlarining mediasavodxonligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, nafaqat yoshlarning axborot makonida faol ishtirokini ta'minlash, balki ijtimoiy birlikni mustahkamlash va madaniy qadriyatlarni saqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Quyida ushbu yo'nalishda olib

borilishi mumkin bo'lgan ilmiy tadqiqotlar turlari va metodologiyalarini keltirib o'tamiz.

1. Yoshlarning mediasavodxonlik darajasini aniqlash va bu ko'rsatkichni turli omillar (ta'lim darajasi, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqti, axborot manbalariga ishonch darajasi va h.k.) bilan bog'lash maqsadida Yoshlar orasida mediasavodxonlik darajasini o'lchash yoshlarning axborot manbalariga bo'lgan ishonch darajasi va mediasavodxonlik darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan omillarni aniqlashda muhim hisoblanadi. Bunda yoshlar orasida keng qamrovli so'rovnomalar o'tkazish orqali ularning axborot manbalariga bo'lgan munosabatini o'rganish, olingan ma'lumotlarni statistik usullar yordamida tahlil qilish hamda turli hududlardagi yoshlar orasida mediasavodxonlik darajasini taqqoslash mumkin.

2. Yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, turli yosh guruhlariga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan treninglar o'tkazish va ularning mediasavodxonlik darajasidagi o'zgarishlarni kuzatish, treninglar davomida axborot manbalariga bo'lgan munosabatni kuzatish muhim sanaladi.

3. Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatini va bu faoliyatning mediasavodxonlik darajasiga ta'sirini o'rganish, shuningdek, ularning ijtimoiy tarmoqlarda axborot manbalarini tanlashdagi xulq-atvorini bilish maqsadida yosh qatlamning ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatini kontent tahlili, intervyular, so'rovnomalar orqali tahlil qilish lozim.

4. Yoshlar orasida mediasavodxonlikni oshirish bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, ushbu dasturlarni turli yosh guruhlariga taqdim etish va ularning samaradorligini baholash orqali yoshlarning mediasavodxonlik darajasidagi o'zgarishlarni aniqlash lozim.

5. Yoshlar orasida mediasavodxonlikni oshirish bo'yicha davlat siyosatini tahlil qilish, takliflar ishlab chiqish, huquqiy tahlil, mutaxassislar va yoshlar bilan intervyular o'tkazish, davlat siyosatining mediasavodxonlikni oshirishdagi o'rnini baholashda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, mediasavodxonlikning ahamiyati tobora ortib borayotgan globallashuv davrida ayniqsa yosh avlodni turli ma'naviy xurujlardan

asrash va ularning o'zida yetarli immunitet hosil qilish orqaligina jamiyat va davlat farovonligiga hissa qo'shish mumkin va ayni zamon ham shuni talab qilmoqda. Bu yo'lda amalga oshiriladigan islohotlar, turli tadqiqotlar kelajak zamon va jamiyatning madaniy-ma'naviy taqdiri uchun xizmat qilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Xabar.uz saytidan olindi. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-80>*
2. *https://en.wikipedia.org/wiki/Media_literacy*
3. *“Media literacy”. Ordered to be printed 17 July 2025 and published 25 July 2025 Published by the Authority of the House of Lords*
4. *Common Sense Media –Yoshlarga mo'ljallangan mediasavodxonlik resurslari: <https://www.common sense media.org/>*
5. *UNESCO Mediasavodxonlik bo'yicha manbalari: <https://en.unesco.org/themes/media-and-information-literacy>*
6. *www.dandc.eu*
7. *news.decoder.com*

